

SURXONDARYO SHEVALARINING LEKSIK XUSUSIYATLARI

Normammedova Ammagul

TerDU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo shevalarining leksik xususiyatlari borasida so'z yuritiladi. Qayd etish lozimki, Surxon vohasi dialektida omonimlik, sinonimlik, ko'p ma'nolilik kabi hodisalar uchraydi hamda bu leksik qatlamning naqadar boy ekanligidan dalolat beradi. Surxondaryo shevalarining leksik xususiyatlarini tahlil qilishda xalq ijodiyoti, og'zaki nutq kabi vositalardan unumli foydalanildi.

Kalit so'zlar: Surxondaryo shevasi, leksik qatlam, ko'p ma'nolilik, sinonimlik, omonimlik, xalq ijodiyoti, og'zaki nutq.

LEXICAL FEATURES OF SURKHANDARYA DIALECTS

Normammedova Ammagul,

Master of TerSU

Abstract: This article discusses the lexical features of Surkhandarya dialects. It should be noted that phenomena such as homonymy, synonymy, and polysemy occur in the Surkhan oasis dialect, and this indicates how rich the lexical layer is. In the analysis of the lexical features of the Surkhandarya dialects, tools such as folk art and oral speech were effectively used.

Keywords: Surkhandarya dialect, lexical layer, polysemy, synonymy, homonymy, folk art, oral speech.

Лексические особенности сурхандарьинских диалектов

Нормухаммедова Аммагул,

Магистрант ТерГУ

Абстрактный. В данной статье рассматриваются лексические особенности сурхандарьинских диалектов. Следует отметить, что такие явления, как омонимия, синонимия и полисемия встречаются в сурханско-оазисном диалекте, и это свидетельствует о том, насколько богат лексический пласт. При анализе лексических особенностей сурхандарьинских говоров эффективно использовались такие средства, как народное творчество и устная речь.

Ключевые слова: сурхандарьинский диалект, лексический пласт, полисемия, синонимия, омонимия, народное творчество, устная речь.


Barchamizga ma`lumki, tilda uchta sath – fonetik, leksik, grammatik sath – mavjud bo`lib, ular orasida leksik qatlam o`zgaruvchan ekanligi bilan ajralib turadi. Tildagi yangiliklar ham, avvalo, ushbu qatlamda kuzatiladi. Tildagi leksik qatlamni tahlil qilishda tilning lug`at fondidagi omonimlik, sinonimlik, ko`p ma`nolilik va shu kabi hodisalar nazarda tutiladi[1]. Ushbu maqolada ham aynan shu jihatlar tahlilga tortilib, Surxondaryo shevasi asosida ko`rib chiqiladi.

Surxon dialekti qipchoq lahjasi asosiga qurilgan bo`lib, qiyosiy tilshunoslik asoschisi Mahmud Koshg`ariy o`zining “Devonu lug`otit-turk” asarida qipchoq shevasiga oid so`zlarni keltiradi[9]. Bu esa ushbu dialektning mavjudligi qadim tarix davrlariga borib taqalishiga yaqqol dalil hisoblanadi.

Mahmud Koshg`ariy “Devon”ida qo`llanilgan qipchoq shevasiga oid leksik qatlamga doir misollar.


	Leksika	Uning ma`nosi
	O`mgan	Ko`krak
	Jur	Yur
	Utmoq	Yutmoq
	Ungur	Yeng
	Burun	Ilgari
	Tog`i	Yana
	O`r	O`jar

Surxondaryo shevasi o`ziga xos leksik qatlamga ega sheva hisoblanib, uni ikki jihatiga ko`ra tadqiq qilish maqsadga muvofiq masala hisoblanadi:



Surxondaryo shevasidagi fonetik o'zgarish asosida farqlanuvchi so'zlar deyilganda, avvalo, ayrim tovush o'zgarishlariga ega so'zlar nazarda tutiladi, xususan, tov, bov, juripti, aytipti va hokazo[11]. Faqatgina shu hududning o'zidagina mavjud so'zlar esa Surxondaryo leksikasining asosiy qatlamini tashkil qiladi, masalan, o'mgan(ko'krak), bovir(jigar). Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, o'rganilgan shevalarning leksik qatlamida uchraydigan bir guruh so'zlarni adabiy til leksikasi bilan qiyoslaganda ularning adabiy tilda ishlatilmasligi holati kuzatilgan. Professor A. G'ulomov ushbu hodisani "leksik dialektizm"deya qayd etadi[7].

Surxondaryo shevasida omonimlik hodisasi ham anchayin faol bo'lib, bunda dialektlar yozuvda bir xil ko'rinishga ega bo'lsa-da, biroq mazmunan turfa xillikni anglatadi. Ushbu omonimlikni ikki guruhga ajratish mumkin:




Adabiy tildagi leksik qatlam bilan omonimlik hodisasini yuzaga keltirgan so'zlar, avvalo, fonetik o'zgarishga asoslanishi ham mumkin. Xususan, bosqich so'zini tahlil qiladigan bo'lsak, adabiy tilda pog'on ava maktabdagi bosqich(daraja)ga nisbatan ishlatilgan ushbu so'z Surxon shevasida fonetik o'zgarishga asoslanib, umuman boshqa ma'noni yuzaga keltiradi va ushbu ma'no ham o'z ichida omonimlik hodisasiga ega hamda uning ma'nosi quyidagilardan iboratdir[5]:

I. *Siyoh shimgich.*

II. *Drakol.*


III. *O'tga shamol beradigan pichoqsozlar asbobi.*

Surxondaryo shevasida omonimlik hodisasiga qarama-qarshi ravishda polimsemiya, ya'ni ko'pma'nolilik hodisasi ham mavjud bo'lib, bunda so'z ma'nosidagi taraqqiyot natijasida ko'p ma'nolilik vujudga kelgan. Surxondaryo shevasida mavjud polisemiya hodisasiga misol sifatida "kiyit" so'zini keltirishimiz mumkin, uning quyida ma'nolari mavjud bo'lib, e'tibor berib qaraydigan bo'lsak, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rishimiz mumkin bo'ladi[3]:



Yuqorida keltirilgan to'rt ma'noga e'tibor beradigan bo'lsak, ular orasida o'zaro bog'liqlikni uchratishimiz mumkin bo'ladi.

Surxondaryo shevasida, bundan tashqari, sinonimlik hodisasi ham mavjud bo'lib, bunda dialektlar turli ko'rinishga ega bo'lsalar-da, biroq ulardagi barcha ma'no bittadir. Buni Surxon shevasida "urg'ochi qoramol"ga nisbatan ishlatiluvchi sinonim so'zlar orqali ko'rishimiz mumkin bo'ladi[12]:



Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Surxondaryo shevasi o'ziga xos sheva hisoblanib, undagi mavjud leksik qatlam ayrim hollarda boshqa shevalarda takrorlansa, ayrim hollarda o'zining qo'llanilish doirasini saqlab qoladi. Surxon shevasini tahlil qilishda uning leksik qatlamini aniqlash ushbu shevaning o'ziga xosligini ta'minlab beruvchi omil sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алиев А. Наманган диалекти лексикасидан кузатишлар. Ўзбек шевалари лексикаси. Т.: 1966. 377-381- б..
2. Базарова Д.Х., Шарипова К.А: Развитие лексики тюрских языков Средней Азии и Казахстана. Т.: ФАН. 1983. 18- б.
3. Бафроев Б. Кўхна сўзлар тарихи. Т.: ФАН, 1991. 151- б.

4. Боровков А. К. Ўзбек тилининг лексикасидаги ўзгаришлар ва янги алфавитлар. СССР Фанлар академияси Ўзбекистон филиалининг ахбороти. 1940. №2. 39- б.
5. Боровков А. К. Узбекский литературный язык в период 1905-1907 гг. Т.: Учпедгиз Уз ССР. 1941. с-103.
6. Гаджиева Н.З. Проблемы тюрской ареальной лингвистики. М.: Наука. 1975. с-302.
7. Гафурова Л.Х. Бўтовя лексика современного узбекского языка. – Ташкент. ФАН, 1991.- 135 с.
8. Данияров Х. Фонетические особенности Бахмального говора. (Жиззах Давлат университетининг асарлари). С.: 1959. 57-82 б.
9. Данияров Х. Опёт изучения джекаюжих диалектов в сравнении с узбекским литературным языком. Т.: ФАН, 1975 – с.238.
10. Джураев Б. Шахрисябзский говор узбекского языка. Т.: ФАН. 1964. с-202.
11. Дониёров Х. Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалеклари. Т.: ФАН, 1976. 140- б.
12. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. Т.: ФАН, 1968. 96- б. 9'